


2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalaridan 3453,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,1% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,4% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,9% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,0% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 1,7% ga o'sishi hisoblanadi.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi, % da



2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3139,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,9 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 26,8 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 17,9 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 12,8 %, kiyim ishlab chiqarish 7,1 %, tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil oxirgi oylarida sanoatning ishlab chiqarish indeksi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2019 yil
yanvar-sentyabr
oylarida

Ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,
foizda

39 841

Paxta chigiti, t.



116,4

16 218,4

Paxtadan yigirilgan ip, t.



2,6 m

43 577,0


Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.



106,4

496

Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona



45,1

2019 yil
yanvar-sentyabr
oylarida

Ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,
foizda

O'simlik yog'i (tozalangan), t.

7803



88,2

Paxta tolasi, t.

24 324



104,6

Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun
qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona

582,1



110,6

Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.

1 907



153,9

Paxta linti, t.

2 053



104,7

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 171,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 %ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 87,7 % ni tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizatsiya qilish 1,2 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,5 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat hajmi, mlrd.so'm




Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da




Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 3453,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,1 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarish indeksi, % da




Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shaxri (53,1 %) va Do'stlik (10,0 %), Paxtakor (6,2 %), Sh.Rashidov (6,1 %), Zomin (5,7 %), Forish (4,0 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'ri, % da




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1607,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 105,6 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 46,6 % ni tashkil etdi.




2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 69,4% dan 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 68,2 % ga kamaygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2532,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shaxrida 10444,9 ming so'mni, Do'stlik tumanida 5360,1 ming so'mni, Paxtakor tumanida 2903,5 ming so'mni, Arnasoy tumanida 1762,7 ming so'mni tashkil etadi.


2019 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari, ming so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan 101 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 905,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,0% ni tashkil etdi.

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'mda




Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 2291,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 66,4 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi, % da




Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 sentyabr holatiga 2738 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 939 tasi Jizzax shaxrida, 592 tasi Sharof Rashidov, 250 tasi G'allaorol, 206 tasi Zomin, 115 tasi Forish, 104 tasi Zarbdor, 96 tasi Paxtakor, 96 tasi Do'stlik, 86 tasi Baxmal, 79 tasi Mirzacho'l, 73 tasi Zafarobod, 56 tasi Arnasoy, 46 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2019 yil 1 oktyabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Sanoat statistikasi bo'limi
telefon: (71) 230-83-47